QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ XOJELI RAYONÍ HÁKIMI SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI XO‘JAYLI TUMANI HOKIMI Q A R O R I

2021 - yil 2 - oktabr 142-13-191-Q/21 Xo‘jayli tuman hokimligi

2021-yilda Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligining o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfsizligining oldini olish choralari haqida

O‘zbekiston Respublikasi “O‘rmon to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1999 y., 5-son, 122-modda) 15, 17, 23, 32, 34, 47-moddalari va O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Xo‘jayli tumani davlat o‘rmon xo‘jaligining o‘rmon fondi hududlarida qaror qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab, 2021-yil 1-dekabrgacha “O‘rmonlarda yong‘in xavfsizligi mavsumi” deb belgilansin.

2. Tuman hududidagi o‘rmonlarda yong‘in xavfining oldini olish hamda yong‘in bo‘lgan taqdirda Xo‘jayli tumani bo‘yicha qilinadigan chora-tadbirlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligi (R.Matkarimov)ga, yong‘in kelib chiqishining oldini olish maqsadida o‘rmonlarni nazorat qilish bo‘yicha quyidagi ishlarni olib borish topshirilsin:

a) yong‘in xavfsizligi talablarining buzilishining oldini olish, o‘rmonlarning ahamiyati haqida fuqoralar orasida keng tushuntirish ishlarin ko‘chaytirish;

b) o‘rmonlarda yong‘inga qarshi kurashishga, yo‘llarni toza saqlashga alohida e’tibor qaratish;

v) o‘rmonlarning kirish joylariga maxsus ogohlantiruvchi belgilar o‘rnatish va mavjud bo‘lgan belgilarni yangilash;

g) o‘rmon fondi tabiiy va texnik holatlarning oldini olish, favqullodda holatlarda tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari, tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi, Ichki ishlar bo‘limi va boshqada korxonalar bilan birgalikda kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ishlab chiqilib, ularning ijrosini ta‘minlash topshirilsin.

4. Xo‘jayli tumani hokimi o‘rinbosari, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (S.Dursimbetova), tuman dehqon, fermer xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (M.Utepov)ga yong‘inga qarshi chora-tadbirlar ko‘rish, o‘rmon fondi yerlari bilan chegaradosh dalalarning atroflarini, kanal va ariqlarni tazolash vaqtida yong‘in kelib chiqishining oldini olish maqsadida qurigan o‘simliklarni yoqib yubormaslik, ekologik muhitni yaxshilash bo‘yicha ishlarni amalga oshirish topshirilsin.

5. Xo‘jayli tumani hokimining 2020-yil 25-avgust kungi “2021-yil Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligining o‘rmon fondi erlarida yong‘in xavfsizligining oldini olish choralari to‘g‘risida”gi 649/08-sonli qarori (“Xojeli haqiyqati” gazetasi 2020-yil 29-avgust kungi №13 (5923)) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Ushbu qaror tuman “Xojeli haqiyqati” gazetasida va tuman hokimligining veb-saytida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosarlari A.Kutlumuratov va A.Niyetullayevlarga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.Ermashev**

Хўжайли туман ҳокимининг
2021 йил 2 октябрдаги
142-13-191-Q/21-сон қарорига
1-илова

Tuman ho‘kimining «2021-yilda Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligining o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfsizligining oldini olish choralari haqida»gi qaror ijrosini ta‘minlash bo‘yisha ishlab chiqilgan

CHORA-TADBIRLAR REJASI

№	Bajariladigan vazifalar	Bajarish muddati	Chora-tadbirning bajarilishiga mas’ullar
1.	O‘rmon fondi yerlariga chegaradosh joylashgan fermer va dehqon xo‘jaliklari, fuqarolar, o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlari va maktab o‘quvchilari o‘rtasida o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfining vaziyatlari bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini hamda o‘quv seminarlarini olib borish, “O‘rmon haqida”gi Qonun qoidalarini tushuntirish fermer va dehqon xo‘jaligi rahbarlari va fuqarolarga yong‘in xavfining oldini olish bo‘yicha ogohlantirish, fermer xo‘jaligi rahbarlarining va fuqarolarning tushuntirish xatlarini olish.	Yil davomida	Tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (R.Muxammadiev) Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligi xodimlari (K. Eshhniyazov, N. Reimbaev A. Ibadullaev, S. Eshhniyazov O. Mungaytbasov, Sh. Seytov, D. Mambetov)
2.	Xo‘jayli tumani favqullodda vaziyatlar bo‘limining yong‘in o‘chirish avtomashinalarini soz holatda turishini, zarur bo‘lganda yong‘in bo‘lgan maydonga o‘z vaqtida etib borishini ta‘minlash.	Yil davomida	Tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (R.Muxammadiev) tuman o‘rmon xo‘jaligi bo‘limi (R.Matkarimov)
3.	Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligining Xo‘jayli o‘rmon hududida yong‘in xavfining oldini olish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni nazorotga olib borish.	Yil davomida	Tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (R.Muxammadiev) Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligi (R.Matkarimov)
4.	O‘rmon xo‘jaligi, o‘rmon begi va barcha o‘rmonchilar o‘zlariga biriktirilgan hududlarda yong‘in xavfining oldini olish maqsadida har 500 metr masofada sig‘imligi 1,5 litr baklashkalarni suv bilan to‘ldirib 10 ta joyga 100 donadan yerga ko‘milgan holatda har bir hududni belgilab ko‘mib qo‘yish kerak.	Yil davomida	Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligi xodimlari (S. Eshhniyazov, O.Mungaytbasov, Sh. Seytov D.Mambetov)
5.	O‘rmon xo‘jaligi hududida yong‘in xavfining oldini olish uchun ishlangan eski va yangi yong‘inga qarshi yo‘lakchalarni tozalash bahor, yoz va kuz mavsumlarida o‘rmon xo‘jaligi hisobidagi MTZ-82.1 traktorini va tuman hududidagi korxonalar bilan shartnoma asosida texnikalardan foydalanish.	Yil davomida	Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligi xodimlari (S. Eshhniyazov, O.Mungaytbasov, Sh. Seytov D.Mambetov)

№	Bajariladigan vazifalar	Bajarish muddati	Chora-tadbirning bajarilishiga mas’ullar
6.	O‘rmon xo‘jaligi barcha hududlarida yong‘in xavfining oldini olish, tabiyatimizni asrab-avaylash, uni muhofaza qilish va saqlash har bir insonning asosiy vazifasi ekanligi to‘g‘risida anglash, pannolarni o‘rnatish eskilarini yangilash, gazetalarda yong‘in xavfining oldini olish to‘g‘risida maqolalar e‘lon qilish, radio, televideniedan ko‘rsatuv va chiqishlarni tashkillashtirish.	Yil davomida	Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligi xodimlari (S. Eshhniyazov, O.Mungaytbasov Sh. Seytov D.Mambetov)
7.	O‘rmonlarda va o‘rmon fondi yerlariga kiruvchi texnika, avto, moto transport vositalarini, dam olish kunlari dam olishga kelgan fuqarolarni baliq, ov ovlashga, ovchilarning o‘rmonga ruxsatsiz kirishini qat’iyan man qilish, ularni ro‘yxatga olish kitobidan o‘tkazib tegishli hujjatlarini talab qilish, agarda yo‘q bo'lgan taqdirda dalolatnoma rasmiylashtirib tegishli huquqni muhofaza qilish organlariga o‘tkazish. Dam olish kunlari daryo va kanal bo‘ylarida dam oluvchi va suvga cho‘milivchi fuqarolar o‘rtasida yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish.	Yil davomida	Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligi xodimlari (K. Eshhniyazov, N. Reimbaev, S. Eshhniyazov, O.Mungaytbasov, Sh. Seytov, D.Mambetov)
8.	O‘rmon fondi yerlarida o‘rmon yong‘inining oldini olish uning vujudga kelmasligi maqsadida xo‘jaliklining barcha o‘rmon hududlarida navbatchilik grafigini ishlab chiqib tegishli mutaxasislar biriktirish, o‘rmon xo‘jaligi binosida shtab tashkillashtirilib telefon aloqasining uzluksiz ishlashini ta‘minlash, biriktirilgan mutaxassislar tomonidan o‘z navbatchiligi vaqtida har soatda xabar berib turish.	Yil davomida	Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligi xodimlari (K. Eshhniyazov, A. Ibadullaev, N. Reimbaev, S. Eshhniyazov)
9.	Qishloq xo‘jaligi ishlariga tayyorgarlik ko‘rish va dalalarni tozalash vaqtida dala boshida xo‘jaliklararo kanal va ariqlar, yovvoyi o‘t-o‘lanlar, sholi va bug‘doy ekinlarining somonlarini yoqib yubroishni taqiqlash.	Bahor, кuz oylari	Xo‘jayli ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi (A.Reymov), Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligi xodimlari
10.	O‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfining oldini olish maqsadida, o‘rmon xo‘jaligi hisobida bor bo‘lgan yong‘inga qarshi vositalar, sig‘imi 3 tonna bo‘lgan suv idish, 1 dona motopila, 20 dona belkurak, 5 dona ketmon, 20 dona chelak, suv sepgich MTZ-82,1 traktorlarini soz holatda saqlash.	Yil davomida	Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligi xodimlari (K. Eshhniyazov, A. Ibadullaev, N. Reimbaev, S.Eshhniyazov)

№	Bajariladigan vazifalar	Bajarish muddati	Chora-tadbirning bajarilishiga mas’ullar
11.	Paxta yig‘im-terim mavsumida o‘rmon fondi erlariga chegaradosh joylashgan fermer va dehqon xo‘jaliklariga yordamga kelgan xasharchilar o‘rtasida o‘rmon atrofida yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni tushuntirish, ovul fuqarolar yig‘ini va o‘rmon xo‘jaligining mas’ul hodimlarini biriktirish.	Bahor, кuz oylari	Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligi xodimlari (K. Eshhniyazov, A. Ibadullaev, N. Reimbaev, S. Eshhniyazov)
12.	O‘rmon xo‘jaligi hududida yong‘in xavfi paydo bo‘lgan paytda tezkor ravishda tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limiga qarashli yong‘in o‘chirish guruhi (101), tuman hokimligi (61.554-32-13) va Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligi (61-556-20-62) telefon raqamlari orqali xabardor qilish.	Zarurat bo‘lganda	Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligi xodimlari (K. Eshhniyazov, A. Ibadullaev, N. Reimbaev, S. Eshhniyazov)